IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

YANGI SO‘ZLARNI O‘QITISH METODIKASI

Mamilova Sabina
Samarqand davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti O‘zbek tili va
adabiyoti yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Erbutayeva Shalola
Ilmiy rahbar
https://doi.org/10.5281/zenodo.24041418

Annotatsiya Ushbu maqolada o‘zbek tiliga yaqin davrda kirib kelgan yangi leksika (neologizmlar) tahlil qilingan hamda ularni muqobil variantlari yordamida interaktiv metodlar orqali o‘qitish yo‘llari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: neologizm, metod, leksema, dekodlashtirish, emoji, xostel, his-belgi, qo‘noqxona

Yangi leksika tilda yangi paydo bo‘lgan va yangilik bo‘yog‘i sezilib turgan leksemalardir. Ular ilmiy terminologiyada **neologizm** deb yuritiladi.Yangi leksema va yangi so‘zni farqlash lozim.Yangi leksika tilimizdan joy olgan yangi leksemalardan tashkil topadi.

Yangi leksikani ikkiga bo‘lish mumkin:

1) Sof yangi leksema tilimiz uchun aslida begona, lekin unga endigina kirib kelib o‘rnashgan boshqa tilga xos leksik birlik (lizing, audit, market, test). Yangi leksema, asosan, terminologik birlik. Yangi leksema davr o‘tishi bilan neytral leksika tarkibiga o‘tib ketadi. Masalan, yaqin vaqtgacha neologizm sifatida qaralgan kosmos, televideniye leksemalari bugungi kunda yangilik bo‘yog‘ini yo‘qotdi;

2) Faollashgan leksema yangi leksikaning turlaridan bo‘lib, ular iste’moldan chiqib ketgan va bugungi kunda qayta qo‘llanila boshlagan birliklardir. Hokim, viloyat, tuman, sardor, vazir kabi leksema shular jumlasidan. Shuningdek, yangi ma’no kasb etgan birliklar ham yangi leksika tarkibida qaralishga haqli: savdogar, tadbirkor, ishbilarmon, biznes va h.k.[2.122,123]

Yangi so‘zlarni o‘qitish metodikasi – bugungi kunda tilimizga chetdan kirib kelyotgan so‘zlarning soni kundan kunga ortib brmoqda. Yoshlar o‘rtasida **neologizmlarning** o‘zbek tilida qanday atalishini bilmaslik darajasi yuqorilab ketgan. Bu esa o‘zbek tiliga yot bo‘lgan leksik qatlamlarning asossiz ravishda ommalashishiga hamda milliy tilimiz sofligiga putur yetishiga olib kelmoqda. Mazkur muammoni bartaraf etish ta’lim tizimida yangi so‘zlarni o‘qitish metodikasini tubdan takomillashtirishni, neologizmlarning o‘zbekcha muqobillarini yoshlar ongiga tizimli ravishda singdirishni hamda darsliklarda lug‘at ustida ishlash jarayoniga alohida e’tibor qaratishni taqozo etadi. Bu metodika bilan so‘zlarning muqobil variantlarni oson va tezda yodlab qolish mumkin.

Globallashuv va raqamli texnologiyalar davrida yoshlarning muloqot madaniyatiga “emoji” tushunchasi shiddat bilan kirib keldi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida ushbu xalqaro terminning

ma’nosini to‘liq ochib beruvchi “his-belgi[1]” muqobili tavsiya etilmoqda. Metodik nuqtayi nazardan, “emoji” (his-belgi) tushunchasini o‘qitish – yoshlarga matnli muloqotda emotsional intonatsiyani to‘g‘ri ifodalashni hamda grafik belgilarni o‘rinsiz foydalanmaslik madaniyatini shakllantirishda xizmat qiladi.

“Raqamli matnni dekodlashtirish” (His-belgilar tili)

- **Metodning maqsadi:** O‘quvchilarda ijtimoiy tarmoqlardagi his-belgilar (emojilar) orqali fikrni faqat vizual emas, balki boy lisoniy joziba bilan matnga ko‘chirish (sinonimlar tanlash, ma’noli gaplar tuzish) ko‘nikmasini shakllantirish;
- **Pedagogik yo‘nalishi:** Nutq o‘stirish, leksikologiya va matn ustida ishlash
- **Vaqt:** 8-10 daqiqa

Darsda qo‘llash bosqichlari (O‘qituvchi uchun yo‘riqnoma):

1-bosqich: His-belgilar kombinatsiyasini taqdim etish: O‘qituvchi doskada his-belgilardan iborat maqol,matal,hikmatli so‘zlar va o‘quvchi uchun tanish bo‘lgan biror bir vaziyatni tasvirlovchi gaplardan iborat bo‘lgan materialni ko‘rsatadi. Masalan,

(Maqol): ⏳ 👇 💰 – “Sabrning tagi –sariq oltin”.

(Gap): 👫 📅 🌙 😷 🚗 – “Men va ukam har yili tog‘ga bobomnikiga boramiz”.

2-bosqich: o‘quvchilar ijodiy faoliyati: Sinf guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruh berilgan his-belgilar ketma-ketligini “dekodlashtirishi” , ya’ni faqatgina belgi nomini aytmasdan, uni o‘zbek tilining boy so‘z va maqollari yordamida badiiy yoki rasmiy mantga aylantirishi kerak.

3-bosqich: O‘qituvchining metodik xulosasi va baholash: O‘qituvchi o‘yinni yakunlab, o‘quvchilarga o‘yin xulosani tushuntiradi.

Globallashuv va turizm sohasining jadal rivojlanishi davrida yoshlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga **“xostel”** tushunchasi kirib keldi. O‘zbek tili lug‘at tarkibida ushbu xalqaro terminning ma’nosini to‘liq ochib beruvchi **“qo‘noqxona[2]”** muqobili tavsiya etilmoqda.Metodik nuqatayi nazardan, “xostel” (qo‘noqxona) tushunchasini o‘qitish – yoshlarga zamonaviy turizm atamalarining lisoniy tabiatini to‘g‘ri tushuntirish hamda ularning ijtimoiy muloqot xalqaro normalariga mos funksional savodxonlikni shakllantirishda xizmat qiladi. Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati[3]” kitobida **qo‘noqxona** so‘zining asos qismiga quyidagicha ta’rif berilgan: **qo‘noq** – biror kishining uyida to‘xtagan yo‘lovchi, mehmon. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan ot asli “ma’lum bir satxdan joy ol” ma’nosini anglatuvchi **qon -** fe’lidan **–(u)q** qo‘shimchasi bilan yasalgan. Keyinchalik ikkinchi bo‘g‘ibdagi **u** unlisi **a** unlisiga almashgan; o‘zbek tilida **a** unlisi **o** unlisiga almashgan: **qon+uq+qonuq >qonaq >qonoq**.[1.586] Demak, zamonaviy ehtiyojlar uchun shakllantirilgan **qo‘noqxona (qo‘noq+xona)** tushunchasi sun’iy emas, balki tilimizning qadimgi yasash qonuniyatlariga to‘liq mos keladigan sof milliy lisoniy birlikdir.

Maktab darsliklariga hali rasman kiritilmagan ushbu turizm neologizmini o‘quvchilar ongiga amaliy nutq orqali singdirish uchun dars jarayonida quyidagi **“Rolli vaziyat”** metodini qo‘llash tavsiya etiladi:

1
2
3

- **Metodning maqsadi:** O‘quvchilarga ijtimoiy-iqtisodiy hayotdagi yangi turizm terminlarini nutqiy vaziyatlar orqali o‘rgatish, “xostel” so‘zining o‘zbekcha muqobili “qo‘noqxona” ekanligini amaliy muloqotda mustahkamlash.
- **Pedagogik yo‘nalishi:** Nutq o‘stirish, funksional savodxonlik va amaliy muloqot.
- **Vaqti:** 5-7daqiqa

Darsda qo‘llash bosqichlari:

1-bosqich: O‘qituvchi sinfda quyidagi nutqiy vaziyatni tashlaydi: “Tasavvur qiling, siz istiqomat qilayotgan shaharga boshqa viloyatdan yoki xorijdan yosh sayyoh keldi. U telefondagi raqamli xaritadan arzon bir xonada bir nechta yotoq joyi bo‘lgan maskanni, ya’ni “xostel”ni qidirib sizdan yo‘l so‘rayapti. Siz unga buni o‘zbek tilida tushuntirasiz va qaysi muqobil so‘zdan foydalanasiz?”

2-bosqich: Sinfdan ikki nafar o‘quvchi chiqib, biri – “Suhbatdosh sayyoh”, ikkinchisi – “Mahalliy yo‘l ko‘rsatuvchi” rolini ijro etadi. Ular o‘rtasida quyidagicha jonli muloqot tashkil etiladi:

- Sayyoh: “Kechirasiz, men talabaman,menga shahar markazida yashash uchun juda qimmat bo‘lmagan xostel kerak edi.Yo‘lni ko‘rsatolomaysizmi?”
- Yo‘l ko‘rsatuvchi: “Ha, albatta! Bizning tilimizda bunday maskanlar **“qo‘noqxona”** deb ataladi. Siz qidirayotgan shinam va arzon qo‘noqxona shu ko‘chaning o‘ng tomonida joylashgan”

3-bosqich. O‘qituvchi o‘yinni sarhisob qilib,yangi so‘zni doskaga yozadi va Shavkat Rahmatullayevning lug‘atidagi etimologik bog‘liqlikni tushuntirib o‘tadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, darsliklarga hali kiritilmagan “his-belgi” (emoji) va “qo‘noqxona” (xostel) kabi zamonaviy neologizmlarni Shavkat Rahmatullayevning etimologik tadqiqotlariga hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining rasmiy platformasi (Atamacom.uz[4]) tavsiyalariga tayanilgan holda o‘rgatish davr talabadir. Dars jarayonida “Raqamli matnni dekodlashtirish” va “Rolli vaziyat” kabi interaktiv metodlarni qo‘llash o‘quvchilarning nutqini o‘stiradi, so‘z boyligini boyitadi hamda ularning amaliy funksional savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Shavkat Rahmatullayev “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati” kitobi –Toshkent:Unversitet, 2000.
2. Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R, Qurbonov M.M, Raupova L.R, Abuzalova M.Q, Yo‘ldosheva D.N “Hozirgi o‘zbek tili” kitobi –Buxoro:Durnona nashriyoti,2021
3. https://atamacom.uz/ – O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Atamalar komissiyasining xorijiy atamalarga muqobil variantlarni shakllantirish rasmiy elektron platformasi.

[4] https://atamacom.uz/